

## YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIALASHTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA AMALIY MEXANIZMLARI

*Xikmatova Husnora Fatxulla qizi,*

*TDAU, "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit" kafedrası assistenti,*

*TDIU mustaqil izlanuvchisi*

XXI asrda iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik xavflarning kuchayishi iqtisodiy rivojlanish modelini qayta ko'rib chiqishni zaruratga aylantirdi. An'anaviy iqtisodiy o'sish modeli barqarorlik tamoyillariga to'liq javob bermayotgani tufayli, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayonda moliyaviy tizim, jumladan tijorat banklarining institutsional roli alohida o'ringa ega.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish jarayonida tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachi, balki iqtisodiy transformatsiyaning faol qatnashchisi sifatida namoyon bo'ladi. Tijorat banklarining institutsional roli bir nechta yo'nalishlarda ifodalanadi.

1. Banklar iqtisodiyotda investitsion resurslarni qayta taqsimlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Yashil loyihalarga ustuvor kredit ajratish orqali ular kapital oqimini ekologik barqaror yo'nalishlarga yo'naltiradi.

2. Tijorat banklari ekologik va ijtimoiy risklarni baholash tizimini kreditlash jarayoniga integratsiya qilish orqali barqaror moliyaviy boshqaruvni shakllantiradi. Bu esa ESG tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

3. Banklar yashil moliyaviy mahsulotlar — yashil kreditlar, energiya samaradorligi uchun moliyalashtirish instrumentlari, yashil obligatsiyalar kabi vositalarni ishlab chiqish orqali moliya bozorida innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi.

4. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida imtiyozli kredit liniyalari va grant resurslarini jalb etish orqali yashil loyihalar hajmini kengaytiradi.

Bugungi kunda global miqyosda dolzarb muammolardan biri ekologik inqiroz va iqlim o'zgarishi hisoblanadi. Mazkur jarayon tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy faoliyatni barqaror rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon davlatlari qatori O'zbekiston Respublikasida ham ekologik muammolarni yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini kuchaytirish dolzarb vazifaga aylangan. Bu borada tijorat banklari orqali yashil kreditlash instrumentlarini rivojlantirish iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklari yashil moliyalashtirish instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Jadvalda ko'rsatilganidek, Hamkorbank, Ipoteka Bank, O'zsanoatqurilishbank hamda Agrobank yashil kreditlar yo'nalishida turli mahsulotlarni taklif etadi. Ushbu mahsulotlar nafaqat ekologik muammolarga qarshi kurash, balki banklar uchun yangi daromad manbai va bozor segmentini shakllantirish imkonini beradi.

Tijorat banklarining moliyaviy natijalari bank tizimining barqarorligi, kreditlash salohiyati hamda iqtisodiyotdagi faolligini baholovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Banklarning sof foydasi, aktivlari hajmi, kredit portfeli va kapital yetarliligi darajasi ularning moliyaviy barqarorligi bilan bir qatorda, ustuvor yo'nalishlar — xususan, yashil moliyalashtirishni kengaytirish imkoniyatini ham belgilab beradi.

**Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda tijorat banklarining kredit instrumentlari (2025-2026y)<sup>28</sup>**

Bank	Kredit turi	Maksimal summa	Foiz/ Muddat	Maqsadi
Hamkorbank	“Yashil ta’mir” ipoteka krediti	170 000 000	19%dan 10 yil	Uy-joyni ekologik tarzda ta’irlash, energiya va resurslarni tejashga yo’naltirilgan yashil ta’irlash.
Agrobank	Yashil energiya	100 000 000	20% 3 yil	Quyosh panellari, energiya samarador texnologiyalar, zamonaviy isitish uskunalari va boshqa ekologik texnologiyalarni sotib olish uchun
Ipak yo’li bank	Yashil makon	80 000 000	20% 5 yil	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik toza texnologiyalar, iqlimga mos loyiha moliyalashtirish.
O’zsanoatqurilishbank	Green comfort-yashil iste’mol krediti	200 000 000	20% 3 yil	Yashil iste’mol kreditlari, energiya samaradorligi loyihalari, ekologik ta’irlash va yashash sharoitini yaxshilash.
Ipoteka bank	“Yashil kredit”	99 000 000	19% 5 yil	Quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shamol generatorlari, quvvati 1 MVt gacha bo’lgan mikro va kichik gidroelektrostansiyalari, biogaz ishlab chiqaruvchi uskunalari, biogaz qurilmalari sotib olish uchun

2025-yil yakunlari bo’yicha tijorat banklarining moliyaviy natijalari bank sektorida ijobiy o’sish tendensiyasi saqlanib qolayotganini ko’rsatadi. Banklarning umumiy daromadlari va kredit portfelining kengayishi ularning investitsion loyihalarni, jumladan, ekologik va energiya samaradorligi yo’nalishidagi loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini oshirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, 2025-yilda O’zbekiston Respublikasida tijorat banklarining moliyaviy natijalari yuqoridagi rasmda keltirilgan.

2025 yilda ham eng yuqori sof foyda O’zmilliybank hissasiga to’g’ri keldi — bank yilni 1,92 trln so’m sof foyda bilan yakunladi. Bu 2024 yilga nisbatan 196,8 mlrd so’mga ko’p. Keyingi o’rinlarda SQB (1,88 trln so’m) va Kapitalbank (1,79 trln so’m) joylashdi. Shuningdek, Hamkorbank va Orient Finans Bank ham 1 trln so’mdan ortiq sof foyda ko’rsatdi.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko’ra, 2026-yil 1-fevral holatiga ko’ra, O’zbekiston bank sektorida foiz daromadi 11,664 milliard so’mni, foiz xarajatlari 8,416 milliard so’mni va foiz marjasi 3,249 milliard so’mni tashkil etdi. 2025-yil yanvaridan martigacha O’zbekiston banklarining umumiy foydasi 3,41 trillion so’mdan oshdi, bu o’tgan yilning shu davriga nisbatan 43,5 foizga ko’pdir.<sup>29</sup>

28 Bank.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

29 [www.Cbu.uz](http://www.Cbu.uz) Markaziy bank rasmiy sayti



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining 2025-yilgi moliyaviy natijalari (mlrd.so‘m)<sup>30</sup>**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan yashil moliyalashtirish mexanizmlari bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Banklar tomonidan “yashil kredit”, “yashil energiya”, “yashil ta‘mir” hamda GEFF dasturi doirasidagi moliyaviy mahsulotlarning joriy etilishi ekologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, tijorat banklarining umumiy kredit portfeli hajmi ortib borayotgan bir sharoitda yashil kreditlar ulushi hali nisbatan kichik bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalish istiqbolli segment sifatida shakllanmoqda. Banklarning moliyaviy barqarorligi va daromadlilik ko‘rsatkichlari yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, yashil moliyalashtirishni yanada rivojlantirish uchun quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

- yashil kreditlar ulushini oshirish;
- ekologik loyihalar uchun imtiyozli moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- banklarda ESG va barqaror rivojlanish tamoyillarini chuqurlashtirish.

Umuman olganda, tijorat banklari yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lib, ularning ushbu yo‘nalishdagi faolligi mamlakatda ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

<sup>30</sup> <https://Bankers.uz> ma‘lumotlari